

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
RESPUBLIKA O'RTA TIBBIYOT VA FARMASEVTIKA XODIMLARI
MALAKASINI OSHIRISH VA ULARNI IXTISOSLASHTIRISH MARKAZI**

«KELISHILDI»

Respublika o'rta tibbiyot va
farmasevtika xodimlari
malakasini oshirish va ularni
ixtisoslashtirish markazi
hududiy xay'at raisi

M.T. Yakimova



03 2025 y.

«TASDIQLAYMAN»

Respublika o'rta tibbiyot va
farmasevtika xodimlari malakasini
oshirish va ularni ixtisoslashtirish
markazi direktori

L.X. Musadjanova



03 2025y.

Bilimlar sohasi: Sog'liqni saqlash

AKUSHERLIK VA GINEKOLOGIK YORDAM KO'RSATISH

(sikli bo'yicha malaka oshirish guruhlar uchun)

O'QUV DASTURI

(144-kredit)

Toshkent – 2025 yil

TUZUVChILAR:

U.B.Ergasheva	RO'TFXMO va IM o'qituvchisi
Z.X.G'ulomova	RO'TFXMO va IM o'qituvchisi
D.A.Axmedova	TDTU Akusherlik va ginekologiya kafedrası dotsenti

TAQRIZChILAR:

Z.Z.Imamova	RO'TFXMO va IM o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari
Rahimova G.F.	RIOBSIATM Toshkent shahar filiali DM HP bo'limi - akusher ginekologi
S.A.Maxmudova	RIOBSIATM Toshkent shahar filiali DM bosh doyasi, milly trener

O'quv dasturi Respublika o'rta tibbiyot va farmasevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazining Pedagogik kengashida ko'rib chiqildi va tasdiqlashga tavsiya etildi.

« 1 » 03 2025.y.

bayonnoma № 2/1

Pedagogik kengash raisi



L.X.Musadjanova

O'quv dasturi direktorlar kengashida ko'rib chiqildi, muhokama qilindi, tasdiqlashga tavsiya etildi.

« 5 » 03 2025.y.

bayonnoma № 2

1. Kirish

O'zbekiston Respublikasida o'rta tibbiyot xodimlarini tayyorlash, malakasini oshirish, tibbiyot muassasalarida o'rta tibbiyot xodimlari ishini xalqaro andozalarga mos tarzda tashkil etish borasida zamonaviy tizim yaratilgan. Mazkur o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 maydagi "Tibbiyot va farmasevtika ta'limi va ilm-fani tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ- 4310-son va 2020 yil 7 apreldagi "Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 4666-sonli qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli "Tibbiy-sanitariya va farmasevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish bo'yicha me'yoriy hujjatlarni yanada takomillashtirish to'g'risidagi" buyrug'i, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2024 yil 28 oktabr 333-sonli "O'rta tibbiyot va farmasevtika xodimlarining malakasini oshirish va qayta tayyorlashga qo'yiladigan Davlat talablari" ijrosini ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan. O'quv dasturni ishlab chiqishda JSST va YuNISEF tomonidan tavsiya etilgan onalar va bolalarga universal-progressiv modeli bo'yicha xizmat ko'rsatish, yo'riqnomalar bilan ishlash, Milliy klinik protokollar bo'yicha tavsiyalardan foydalanilgan. O'quv dasturi modul tizimi asosida ishlab chiqilgan bo'lib, o'quv fanning mazmuni, uni o'zlashtirish shakli va usullari mujassamlashtirilgan. Dastur mazmunida nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar orqali mustahkamlash va chuqur bilimlarni egallash alohida e'tiborga olingan. O'quv dasturi "Akusherlik va ginekologik yordam ko'rsatish" yo'nalishining o'quv rejasi asosida tayyorlangan bo'lib, o'rta tibbiyot xodimlari (akusherka va ginekologiya bo'limlari hamshiralari, feldsherlar)ni 144 kredit malaka oshirishlari uchun mo'ljallangan.

Dasturda fanlar modullarga ajratilgan bo'lib, kasbiy rivojlanish moduli fanlar hamda, mutaxassislik fanlar bo'yicha ta'lim olayotganlarning har tomonlama kasbiy, ma'naviy va siyosiy dunyoqarashlarini kengaytirishga qaratilgan yangiliklar, shuningdek, sog'liqni saqlash tizimidagi islohatlar, tibbiyot sohasining ilm – fani va amaliyotining rivojlanishi tendensiyalari va yutuqlari, yangi texnika va texnologiyalari to'g'risida ma'lumotlar kiritilib, tibbiy ta'limda uzluksizligi va uzviyligini, fanlar va bo'limlarni ketma-ketligini ta'minlangan holda tinglovchilarni mustaqil ishlashga va fikrlashga qaratilgan o'quv materiallarini qamrab olgan.

1.1. Maqsad:

O'qish natijasida " Akusherlik va ginekologik yordam ko'rsatish" bo'yicha o'rta tibbiyot xodimlarining mavjud kompetensiyalarini takomillashtirish va kasbiy faoliyat uchun zarur yangi bilim va ko'nikmalarni egallash, kasbiy darajasini oshirishva yangilash asosida, ularda o'smirlar, fertil yoshdagi ayollarni

reproduktiv salomatligini saqlash, homiladorlik davrida antenatal kuzatuv va tibbiy yordam ko'rsatish, tug'ruq va tug'ruqdan keyingi parvarishni tashkil qilish, yangi tug'ilgan chaqaloqlarni parvarish qilish, ginekologik kasalliklarda bemorlarni parvarish qilish qobiliyatini kuchaytirish, xalqaro kasalliklar tasnifiga mos keladigan kasalliklarning nozologik shakllari, ambulator va statsionar sharoitida kasalliklarni tashxislash va bemor hayotiga xavf soluvchi xolatlarda shoshilinch yordam ko'rsatish, profilaktik tadbirlar majmuasini amalga oshirish bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini chuqurlashtirish va yangilash. Shu bilan bir qatorda ularga akusherlik ishining mohiyati, normativ-xuquqiy hujjatlar bilan ishlash, aholiga sifatli akusherlik yordamini ko'rsatish bo'yicha bilim va ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

1.2. Vazifalar.

- umumiy malaka oshirish o'quv jarayonini modulli tibbiy ta'lim tamoyili bo'yicha, zamonaviy, isbotlangan tibbiyotga asoslangan davlat talablariga mos holda tuzilgan o'quv dasturi bo'yicha tizimli tashkillashtirish va tibbiy davolash muassasalarida ko'rsatiladigan profilaktik, tashxislash va parvarishlash uchun kerakli amaliy ko'nikmalarni mustaqil qo'llashga tayyorgarlikni shakllantirish.
- sog'liqni saqlash tizimidagi islohotlar va me'riy hujjatlarni ish faoliyatida qo'llay olishga o'rgatish;
- aholi salomatligini qayta tiklash va yanada mustahkamlash, tibbiy yordamga muxtoj bemorlarni zamonaviy apparaturalarda tekshirishga tayyorlash, ayol xayotiga xavf soluvchi holatlarni kamaytirish, tibbiy yordam ko'rsatish chora tadbirlari, hozirgi kunda qo'llanilayotgan yangi tibbiy texnologiyalar to'g'risida ma'lumot berish;
- aholi o'rtasida tibbiy madaniyatni oshirish, sog'lom turmush tarzini shakllantirish, profilaktik chora tadbirlarni amalga oshirish orqali ko'p tarqalgan kasalliklarni oldini olishga o'rgatish;
- etika va deontologiyaning zamonaviy jihatlarini shakllantirish;
- Milliy klinik protokollar asosida amaliy ko'nikmalarni qo'llash, ular asosida ishlash ko'nikmalarini yangilash va mukammallashtirish;
- ona va bola salomatligini muhofaza qilish, reproduktiv salomatlik va bexatar onalik dasturlari asosida ona va bola sog'lig'ini saqlashda yo'naltirilgan samarali perinatal yordamini tashkil etish;
- homilador ayollarni ratsional ovqatlanish, ona sutining ahamiyati, sog'lom va kasal chaqaloqlarni parvarishlash borasidagi bilim va ko'nikmalarini yangilash;
- homilador ayolning hayotiga xavf soluvchi belgilarni aniqlash;

- ona sutining ahamiyati, sog'lom va patologiya bilan tug'ilgan chaqaloqlarni parvarishlash, 6 oygacha bo'lgan bolalarning istisnosiz ko'krak suti bilan emizishning muammolarini aniqlash;
- ayollar jinsiy a'zolarining kasalliklarini sabablari, tashxislash va davolash borasidagi bilim va ko'nikmalarini yangilash;
- ayollarni zamonaviy laborator va instrumental tekshiruvlar o'tkazish uchun tayyorlash ko'nikmalarini mukammallashtirish;
- ayol jinsiy a'zolari xavfli va xavfsiz o'sma kasalliklarni oldini olish, dispanser kuzatuvini olib borishni takomillashtirish;
- bemorlar hayotiga xavf soluvchi holatlarda shoshilinch tez tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini mukammallashtirish;
- favqulodda vaziyatlar, kechiktirib bo'lmaydigan holatlarni tahlil qila olish va kechiktirib bo'lmaydigan yordamni ko'rsatish qobiliyatini yangilash.

1.3. Ta'lim oluvchilar toifasi (kontingenti):

O'quv dastur bo'yicha OP, OShP, tug'ruq komplekslari va perinatal markazlarida faoliyat yuritayotgan o'rta tibbiyot xodimlari malakaviy tavsifnomasi va lavozim yo'riqnomalariga muvofiq, ya'ni mutaxassisligini *tasdiqlovchi hujjati* bo'lgan akusherka, ginekologiya bo'limlari hamshiralari va feldsherlari uchun mo'ljallangan.

1.4. O'quv dasturni o'zlashtira olish uchun zarur bo'lgan tinglovchi kompetensiyasi:

- tibbiy etika va deontologiyani amalda qo'llay oladigan, shaxslararo muloqot ko'nikmalari asoslarini tushungan yetuk mutaxassis bo'lishi;
- aholi salomatligini saqlash va ijtimoiy shart-sharoitlarni hisobga olgan holda akusherlik faoliyatini amalga oshirish;
- fertil yoshdagi ayollarga kompleks yordam ko'rsatish;
- sog'liqni saqlash tizimining birlamchi bo'g'inida akusherlik yordamni tashkil etish;
- ona va bola salomatligini saqlash bo'yicha direktiv hujjatlarni o'rganish, me'yoriy hujjatlarni yuritishni bilishi;
- aholining reproduktiv salomatlik holatini taxlil qilishi;
- aholi reproduktiv salomatligini saqlashda profilaktik tadbirlarni tashkil etish;
- reproduktiv salomatlik, nikox gigienasi, xomilador ayolni tug'ruqqa tayyorlash masalalarida maslahatlar berishni;
- o'z kasbiy salohiyati doirasida sanitar oqartuv, satinar-gigienik, profilaktik, reabilitatsion, diagnostik va reanimatsion tadbirlarni, vrach ko'rsatmalarini amalga oshirish;

- normal tugʻruq jarayonida tugʻuvchi ayolga akusherlik parvarishini koʻrsatish, tugʻruqni qabul qilishi;
- chaqaloqni parvarishlash koʻnikmalariga ega boʻlish;
- chaqaloqni parvarishlash boʻyicha onalarga amaliy yordam berish;
- akusherlik va ginekologik bemorlar xolatini baholash, asosiy simptom va sindromlarni ajratish, akusherlik qon ketishida, ogʻir va terminal xolatlarda, jarohatlarda, zaxarlanishlarda yurak-oʻpka reanimatsiyasini oʻtkazish, vrachgacha boʻlgan tez tibbiy yordam koʻrsatish.

1.5. Dasturning dolzarbligi:

Oʻquv dasturining dolzarbligi amaliy tibbiy yordamning hayotiy ehtiyojlaridan kelib chiqib, amaldagi standart va bayonnomalar, dalillarga asoslangan tibbiyot tamoyillarida kasalliklar dignostikasi, zamonaviy parvarish va profilaktika choralarini qoʻllash, «Sogʻlom avlod», «Ona va bola» Davlat dasturining asosiy yoʻnalishlari, shuningdek tibbiyot huquqi boʻyicha amaldagi qonunchiligi, hamda zamonaviy ilm-fan yutuqlariga muvofiqligi, tibbiyot fani va amaliyotidagi mavjud vaziyat oʻzgarishini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan.

1.6. Dastur hajmi: 144 kredit (kuniga 6 kredit, haftada 36 kredit).

1.7. Oʻqish shakli:

- kunduzgi - oʻqish ishdan ajralgan holda
- on/offline, masofaviy - oʻqish ishdan ajralgan/ ajralmagan holda

1.8. Mashgʻulotlarni oʻtish tartibi: Mashgʻulotlar “Tibbiy-sanitariya va farmasevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish toʻgʻrisidagi” Oʻzbekiston Respublikasi Sogʻliqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli buyrugʻi va markazning ichki tartib-qoidalarida asosida rejalashtiriladi va amalga oshiriladi. Mashgʻulotlar 9⁰⁰ da boshlanib, 13⁴⁰ da tamom boʻladi. Tushlik - 30 daqiqa.

1.9. Malaka oshirishdan soʻng: oʻquv kursni toʻliq oʻzlashtirgan va yakuniy attestatsiyani topshirgan tinglovchilarga “Davolash profilaktika muassasalarida akusherlik va ginekologik yordam koʻrsatish” boʻyicha umumiy malaka oshirganligi haqida Davlat talablari namunasidagi sertifikat taqdim etiladi.

2. REJALASHTIRILAYOTGAN TAʼLIM NATIJALARI

2.1. Rejalashtirilayotgan taʼlim natijalaridan soʻng takomillashtirilishi (yangilanishi) lozim boʻlgan kasbiy kompetensiyalar:

- oʻrta tibbiyot xodimining fikrlash, tahlil va sintez qilish, jamoa bilan ishlash va uni boshqarish, intizomlilik, boshlagan ishini mantiqiy yakuniga yetkazishga tayyorligini rivojlantiradi;
- oʻz-oʻzini baholash, tanqidiy tahlil qilish va toʻgʻri qarorlarni qabul qilish;

- ona - bolalar sog‘lig‘ini saqlash va mustahkamlash doirasida, aholi orasida tibbiy madaniyat, sog‘lom turmush tarzi, kasallik rivojlanishining oldini olish borasida profilaktik sanitariya targ‘ibot tadbirlarni olib borish, sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini shakllantirishda yangi texnologiyalarni keng tatbiq etish;
- hamkasblar, hamshiralalar va kichik tibbiy xodimlar, bemorlar va qarindoshlar bilan muloqotda tibbiy faoliyatning axloqiy va deontologik jihatlarini amalga oshirishga tayyorligi va amalga oshirishi;
- intizomiy, ma‘muriy, fuqarolik, jinoiy javobgarlikni amalga oshirayotganda tibbiy xatolarning oldini olish bo‘yicha o‘z faoliyati natijalarini tahlil qilish tayyorligi va amalga oshirishi;
- so‘rov o‘tkazish, jismoniy ko‘rikdan o‘tkazish, ambulator va statsionar bemorlarga tibbiy xujjatlarni to‘g‘ri rasmiylashtirish;
- antropometrik o‘lchov, tekshiruv ko‘nikmalarini shakllantirish va olingan natijalarni tahlil qilish;
- kasallikni erta va yashirin turlarini, havf omillarini aniqlash uchun zamonaviy birlamchi, ikkilamchi profilaktik ishlarni amalga oshirish;
- ona va bola salomatligini muhofaza qilish, reproduktiv salomatlik va bexatar onalik dasturlari asosida ona va bola sog‘lig‘ini saqlashga yo‘naltirilgan hamshiralik jarayoni, samarali perinatal yordamini tashkil etish va parvarishni olib borish;
- ruhiy muammolari, ekstragenital kasalliklari aniqlangan ayollarga homiladorlikning kechishi va tug‘ish jarayonida kuzatilishi mumkin bo‘lgan muammolar to‘g‘risida ma‘lumot berish;
- onalik va bolalikni muhofaza qilish muassasalarida axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish va ko‘satkichlarni tahlil etish;
- fertil yoshdagi ayollarni salomatligini mustahkamlash va bolalar salomaligini muhofaza qilishda chuqurlashtirilgan tibbiy ko‘rikni samarali tashkil etish;
- homilador ayollarga universal-progressiv modeli bo‘yicha xizmat ko‘rsatish ko‘nikmalarini takomillashtirish;
- homiladorlikka nisbiy va mutloq mone‘ligi bor ayollarni aniqlash.
- o‘rta va yuqori xavf guruhlariga kiruvchi aholining belgilangan muddatlarda tibbiy ko‘riklardan o‘tishini ta‘minlash va salomatligini davriy kuzatuvga olish;
- to‘g‘ri ovqatlanish, jismoniy faollik va zararli odatlar to‘g‘risida maslahat berish asosiy tamoyillarini o‘rgatish;
- ginekologik kasalliklarda qo‘llaniladigan mahalliy davolash muolajalari ko‘nikmalarini mukammallashtirish;
- ayol jinsiy a‘zolarini havfsiz, havfli va rak oldi o‘sma kasalliklarini erta aniqlash bo‘yicha tekshiruvlarni tashkillashtirish;
- zamonaviy kontrasepsiya usullaridan foydalanish bo‘yicha maslahat berish ko‘nikmasi mukammallashtadi;
- o‘smirlar orasida jinsiy tarbiyani shakllantirish ko‘nikmasi takomillashadi;

- jinsiy yo‘l bilan yuqadigan kasalliklarni oldini olish chora- tadbirlar majmuasi yangilanadi;
- tug‘ma va irsiy kasalliklar profilaktikasi samaradorligini oshirish (skrining)ko‘nikmasi mustahkamlanadi;
- akusherlik qon ketishida, og‘ir va terminal xolatlarda, jarohatlarda, zaxarlanishlarda yurak- o‘pka reanimatsiyasini o‘tkazish, vrachgacha bo‘lgan tez tibbiy yordam ko‘rsatish ko‘nikmalari mukammallashadi.

3. DASTUR MAZMUNI

3.1“Akusherlik va ginekologik yordam ko‘rsatish” kursi o‘quv rejasi

№	Modul va mavzular nomi	Kredit	Auditoriya mashg‘ulotlari		Seminar	Attestatsiya
			Nazariy mashg‘ulot	Amaliy mashg‘ulot		
1.0	Kasbiy rivojlantirish moduli	32	16	16		
1.1	Modul.O‘zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosati.	4	4	-		
1.2	Modul. Tibbiyotda raqamli texnologiyalar	6	2	4		
1.3	Modul. Infekzion nazorat.	6	4	2		
1.4	Modul.Sterilizatsiyada zamonaviy usullar va texnika xavfsizligi	6	2	4		
1.5	Modul. Sog‘lom turmush tarzini shakllantirish mezonlari. Jismoniy faollik	10	4	6		
2.0	Mutaxassislik fanlar moduli	104	44	60		
2.1	Modul.Reproduktiv salomatlik. Onalik va bolalikni muhofaza qilish.	6	4	2		
2.2	Modul. Antenatal parvarish. Homiladorlikda xavf omillari bo‘lgan ayollar kuzatuvi va ularni parvarishlash.	30	10	20		
2.3	Modul.Ekstragenital kasalliklar va homiladorlik	6	4	2		
2.4	Modul: Tug‘ruqda qo‘llanadigan zamonaviy texnologiyalar. Tug‘ruq va tug‘ruqdan keyingi davrda akusherlik parvarishi.	18	6	12		

2.5	Modul: Sogʻlom va patologiya bilan tugʻilgan chaqaloqlarda hamshiralik parvarishi. Asfiksiyada samarali reanimatsiya yordamini koʻrsatish.	6	2	4		
2.6	Modul. Ginekologik bemorlarni tekshirish usullari, hamshiralik parvarishining zamonaviy aspektlari.	24	12	12		
2.7	Modul. Ayol jinsiy aʼzolari rak oldi va fon holatlari. Ayollar jinsiy aʼzolari xavfsiz va xavfli oʻsma kasalliklari, erta diagnostikasi.	8	4	4		
2.8	Modul. Favqulodda vaziyatlar va hayot uchun xavfli holatlarda birinchi yordam koʻrsatish.	6	2	4		
3.0	Tanlov fanlar moduli	4			4	
	Attestatsiya	4				4
	Jami:	144	60	76	4	4

“ Akusherlik va ginekologik yordam koʻrsatish” kursi oʻquv modullarining mazmuni

1.1. Modul. Oʻzbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosati.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning Oliy Majlis Qonunchilik palatasining yaqin va istiqbolga moʻljallangan Harakatlar dasturi muhokamasiga bagʻishlangan yigʻilishidagi nutqida belgilab berilgan Sogʻliqni saqlash tizimidagi dasturlarni samarali va toʻliq amalga oshirishdagi asosiy vazifalar. Yangi Oʻzbekiston tibbiyoti-yangicha yondashuvlar asosida transformatsiya qilinayotgan tizim. Yangi Oʻzbekistonning Taraqqiyot strategiyasida tibbiyotga doir ustuvor yoʻnalishlarning mazmun-mohiyati.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Ayollar orasida onkologik kasalliklarni nazorat qilishga doir davlat dasturi toʻgʻrisi”dagi hamda “Tibbiy va sogʻlomlashtirish turizmini yanada rivojlantirish chora- tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarorlarining ahamiyati. Sogʻliqni saqlash tizimini raqamlashtirishdagi ustuvor vazifalar. “Aholi salomatligi-2030” milliy strategiyasining ustuvor yoʻnalishlari, vazifalari va asosiy indikatorlari.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2020-yil 12-noyabrda “Sogʻliqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli va davlat tibbiy sugʻurtasi mexanizmlarini Sirdaryo viloyatida joriy etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi 4890-sonli shuningdek 2024 yil 5-sentabrda “Davlat tibbiy sugʻurtasi mexanizmlarini joriy etishga oid chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi 311-sonli Qarorlarining mazmun-mohiyati.

Davlat tibbiy sugʻurtasi-sifatli tibbiy xizmat kafolati. Davlat tibbiy sugʻurtasi mexanizmlarini joriy qilish bilan bogʻliq islohotlar. Davlat tibbiy sugʻurtasining

huquqiy asoslari, mexanizmlari va joriy etish bosqichlari haqida. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat tibbiy sug‘urtasiga oid norma haqida.

1.2.Modul. Tibbiyotda raqamli texnologiyalar

Tibbiyot sohasida raqamli texnologiyalaridan foydalanishdagi nazariy va amaliy bilimlarni egallash, Bemor ma'lumotlarini boshqarish, tibbiy statistik ma'lumotlarni to'g'ri tahlil qilish, tahlil qilingan natijalardan kelib chiqqan holda kasallikning oldini olish yoki davolash yo'llarini aniqlash, axborot texnologiyalaridan foydalanish borasida asosiy amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish.

Internet tarmog'ida ishlash, axborot qidirish va ulardan foydalanish, tibbiyot axborot tizimlari xususiyatlari, ma'lumotlar bazasini tashkil etish, mobil tibbiyot ilovalari va axborot xavfsizligi asoslarini, AI asosida diagnostika, chatbotlar va virtual yordamchilardan foydalanishni bilishi kerak. "Tibbiyotda raqamli texnologiyalar" o'quv modulini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

- tibbiyotda raqamli texnologiyalar tushunchalari va tasavvurlarining umumiyligi;
- axborot tushunchalari va turlari. Tibbiyot masalarini yechishda informatikaning o'rni;
- hozirgi zamonda informatikaning o'rni va roli, ma'lumotlarni saqlash, qayta ishlash va uzatish.

1.3.Modul. Infeksion nazorat.

Infeksion nazorat, maqsad va vazifalari. Shifoxona ichi infeksiyasi, kelib chiqish sabablari, profilaktikasi. Sanitariya epedimiologiya sohasida qo'llaniladigan me'yoriy hujjatlar. Davolash profilaktika muassasalarida shifoxona ichi infeksiyasini oldini olish chora tadbirlarini o'tkazishda o'rta tibbiy hodim vazifalari. Karantin va o'ta havfli infeksiyalar haqida tushuncha. Karantin va o'ta havfli infeksiyalar profilaktikasini amalga oshirish chora tadbirlari, himoyalash tamoyillari. OIV/OITS haqida umumiy ma'lumot. OIV/OITS tarqalishini oldini olish choralari. Avariya holatlar yuzaga kelganda tibbiy hodim taktikasi. Himoya kiyimlari va ulardan foydalanish tartibi.

1.4.Modul. Sterilizatsiyada zamonaviy usullar va texnika xavfsizligi.

Sterilizatsiya bo'limidagi yuritiladigan me'yoriy hujjatlar.Sterilizatsiyani olib borish xonalaridagi aseptika va antiseptika tadbirlari, ularning talab darajasida bajarilish tartib va qoidalari. Antiseptikaning mexanik, fizikaviy, kimyoviy, biologik turlari. Antiseptik moddalarning guruhlari. Markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan sterilizatsiya bo'limlari turlari. Zamonaviy sterilizatsiya apparatlari va texnika xavfsizligi masalalari. Sterilizatsiyaning sifatini ta'minlovchi tadbirlar, uni tekshirish uchun zarur indikatorlar. Zararsizlantirish bo'limlarida zamonaviy zararsizlantirish apparatlari, ular bilan ishlash. Zararsizlantirish usullari. Zararsizlantirish xonasi texnika xavfsizligi qoidalari. Dezinfeksiya vositalarini tayyorlashda xavfsizlik choralari va dezinfeksiya vositalari bilan zaharlanishda birinchi yordam ko'rsatish. Avtoklavlarni turlari,

tuzilishi, ishlash tartibi. Avtoklav ko'rsatkichlarini ish jarayonida ahamiyati. Mehnatni muhofaza qilish ishlarini tashkil etish. Zamonaviy sterilizatsiya apparatlari va texnika havfsizligi masalalari. Sterilizatsiyaning sifatini ta'minlovchi tadbirlar, uni tekshirish uchun zarur indikatorlar.

1.5. Modul. Sog'lom turmush tarzini shakllantirish mezonlari. Jismoniy faollik

Sog'lom turmush tarzini tashkil etish asoslari. Sog'lom turmush tarzini shakllantirishda maqsadli guruhlar bilan ishlash. Atrof muhit va ekologik omillarning salomatlikka ta'siri, to'g'ri ovqatlanish prinsiplari, kun tartibini to'g'ri tashkil etish, jismoniy faollik va chiniqishning salomatlikdagi ahamiyati, zararli odatlarning organizmga ta'siri, tibbiy ko'riklarni tashkil etish va aholini jalb etish.

2.1. Modul. Reproduktiv salomatlik. Onalik va bolalikni muhofaza qilish.

"Onalik va bolalikni muhofaza qilish"ning qonunchilik asoslari, SSVning mutaxassislikka oid amaldagi buyruqlari. Reproduktiv salomatlik, onalik va bolalikni muhofaza qilish. Reproduktiv davr. Reproduktiv xuquq masalalari. Oilaviy shifokor yoki akusher- ginekolog bilan birgalikda homilador, tuqqan ayolni olib borish bo'yicha individual reja ishlab chiqish. Akusherka (hamshira)ning xuquq, vazifalari va tibbiyot deontologiyasi. Zamonaviy kontraseptiv vositalarining turlari, xususiyatlari, qo'llanishi va asoratlari, ayol yoshiga qarab kontrasepsiya usullarini tanlashda maslahat olib borish. Sog'lom turmush tarzi targ'ibotini olib borish va patronaj ishlarni tashkillashtirish. Reproduktiv yoshdagi ayollarga akusherlik (hamshira) yordamini ko'satishni. O'smirlar kontrasepsiya xususiyatlari.

2.2. Modul. Antenatal parvarish. Homiladorlikda xavf omillari bo'lgan ayollar kuzatuv va ularni parvarishlash.

Homilador ayol va homila fiziologiyasi. Homiladorlikni aniqlashning zamonaviy usullari. Homiladorlik davrida antenatal kuzatuv, parvarishlash va tibbiy yordam ko'rsatish. Oilada onalikni muhofaza qilish. Homiladorlikning belgilari. Homiladorlik erta diagnostikasi. Homiladorlik muddatini aniqlash usullari. Homiladorlikning I, II, III – trimestrlarida ayol organizmidagi o'zgarishlar. Homiladorlik davri gigienasi va ovqatlanishi. Homilador ayolga universal-progressiv modeli bo'yicha xizmat ko'rsatish. Homiladorlik davri depressiyasini aniqlash va yordam berish. Homiladorlik bilan bog'liq kasalliklar. Homiladorlar qusishi, darajalari. Homiladorlik gipertenziv sindromi. Preeklampsiya va eklampsiyada yordam ko'rsatish. Ekstragenital kasalliklari bo'lgan ayollarda homiladorlikning kechishi. Patologiya bilan kechadigan homiladorlikni olib borish. Skrining markazining asosiy maqsad va vazifalari. Skrining tekshiruvining mohiyati. Homilador ayol salomatligi va homila holatini baholash. Homilador ayoldagi psixologik o'zgarishlar va ijtimoiy holatini aniqlash. Homilador ayolning hayotiga xavf soluvchi belgilar va ularni aniqlash. Homiladorlikni 22 haftasigacha va 22 haftasidan keyingi muddatlarida qon ketish sabablari, yordam ko'rsatish. Normal joylashgan plasentaning barvaqt

ko'chishi va plasentaning oldinda yotishining sabablari, turlari, sodir bo'lish darajalari. Homilador ayollarni sog'lomlashtirish va bexatar tug'ruqqa tayyorlash.

2.3. Modul. Ekstragenital kasalliklar va homiladorlik Ekstragenital kasalliklari bo'lgan ayollarda homiladorlikning kechishi. Homilador ayollarni sog'lomlashtirish va bexatar tug'ruqqa tayyorlash. O'zbekistonda yuqumli bo'lmagan kasalliklar bo'yicha epidemiologik vaziyat. Bronxial astma, o'pkaning surunkali obstruktiv kasalliklari, yurak qon-tomir kasalliklari, gipertoniya kasalligi, qalqonsimon bez kasalliklarida hamshiralik parvarishini tashkil etish. Virusli va bakteriyali yallig'lanish kasalliklari, homilaga ta'siri, aniqlash va yordam ko'rsatish. (TORCH -infeksiyalari to'g'risida umumiy ma'lumot.) Yuqumli kasalliklarga erta tashxis quyishning ahamiyati. Virusli gepatitlar, o'pka sili, nafas yo'llari kasalliklarida hamshiralik parvarishi.

2.4. Modul Tug'ruqda qo'llanadigan yangi texnologiyalar. Tug'ruq va tug'ruqdan keyingi davrda akusherlik parvarishi. Tug'ruq. Tug'ruq davrlari, klinik kechishi. Normal tug'ruq biomexanizmi. Tug'uvchi ayol va homila holatini baholash. Tug'ruqda qo'llanilayotgan zamonaviy texnologiyalar. Tug'uvchi ayoldagi ruhiy va ijtimoiy o'zgarishlar. Tug'ruqning 1, 2, 3-davrlarini boshqarish. Me'yorida kechayotgan tug'ruqni olib borish. Partogrammani yuritish. Ayolni psixosotsial qo'llab quvvatlash. Tug'ruqning III-davrini aktiv olib borish. Yangi tug'ilgan chaqaloq fiziologiyasi. Chaqaloq holatini Apgar shkalasi bo'yicha baholash. Issiqlik zanjiriga amal qilish. Sog'lom tug'ilgan chaqaloqlarni parvarish qilish. Yangi tug'ilgan chaqaloq patologiyasi. Yangi tug'ilgan chaqaloq reanimatsiyasi. Issiqlik zanjiriga amal qilish. Tug'ruq va tug'ruqdan keyingi parvarishni tashkil etish. Ilk chilla davrida tuqqan ayol parvarishi. Erta chilla davrida qon ketish sabablari, belgilari, asoratlari. Akusherlikdagi qon ketishlarning oldini olishda akusherkaning vazifalari. Gipo-atonik qon ketishlarda shoshilinch yordam ko'rsatish. Fiziologik chilla davri. Tuqqan ayol organizmidagi o'zgarishlar. Tug'ruqdan keyin me'yoriy tiklanish. Yo'riqnomalar bilan ishlash. Ko'krak sutining ahamiyati. Chilla davrida ayollar gigienasi. Chilla davri kasalliklari, sabablari. Chilla davri kasalliklarida akusherlik yordamini ko'rsatish.

2.5. Modul. Sog'lom va patologiya bilan tug'ilgan chaqaloqlarda hamshiralik parvarishi. Asfiksiyada samarali reanimatsiya yordamini ko'rsatish.

Yangi tug'ilgan chaqaloqlarni anatomo - fiziologik xususiyatlari. Chaqaloqlarning oy kuni yetib tug'ilganlik belgilari. Apgar shkalasi bo'yicha chaqaloq xolatini baholash. Issiqlik zanjiri. Chaqaloqni tana haroratini saqlash («kenguru» usuli, «terini-teriga» kontakti). Sog'lom tug'ilgan chaqaloqlarni parvarish qilish. Yangi tug'ilgan chaqaloq patologiyasi. Yangi tug'ilgan chaqaloq reanimatsiyasi. Asfiksiyada tug'ilgan chaqaloqlarga yordam ko'rsatish algoritmi. AVSD qadami. Muddatiga yetib, muddatidan oldin, patologiya bilan tug'ilgan, tug'ruq vaqtida jarohatlangan chaqaloqlarga ko'rsatiladigan akusherlik (hamshiralik) parvarishi. Ona sutini yangi tug'ilgan chaqaloqlar uchun ahamiyati.

Yangi tugʻilgan chaqaloqlarni koʻkrakka qoʻyish. Yangi tugʻilgan chaqaloqlarni tugʻma galaktozemiya va fenilketonouriyaga tekshiruvi (skrining) ga tayyorlash. OIV-infeksiyasi bilan zararlangan onadan tugʻilgan yangi chaqaloqlarni parvarishlash hususiyatlari. Milliy protokol asosida ish olib borish.

2.6. Modul. Ginekologik bemorlarni tekshirish usullari, hamshiralik parvarishining zamonaviy aspektlari.

Ginekologik kasalliklarining turlari, sabablari va klinik belgilari, asoratlari, profilaktikasi. Oʻsmir qizlarda jinsiy va jismoniy rivojlanish koʻrsatkichlari. Oʻsmirlar gigienasi. Oʻsmir qizlar jinsiy aʼzolari nuqsonlari va notoʻgʻri rivojlanishi. Yuvenil qon ketish. Qiz bolalar va oʻsmir qizlarda tekshirishning oʻziga xos usullari. OPV (odam papilloma virusi) ga qarshi emlash. Ayollar jinsiy aʼzolarining yalligʻlanish kasalliklari. Virusli va bakteriyali yalligʻlanish kasalliklari, ayollar jinsiy aʼzolari nospesifik va spetsifik yalligʻlanish kasalliklari. Ayol jinsiy aʼzolari kasalliklarida zamonaviy tekshirish usullari va ularga ayolni tayyorlash. OIV/OITS ning kelib chiqish sabablari, yuqish yoʻllari. Bepushtlik, sabablari, zamonaviy diagnostika usullari. Bepushtlikni zamonaviy davolash usullari. Hayz sikli buzilishlari, kasalliklarining kelib chiqish sabablari. Klimakterik yoshda ayol organizmidagi oʻzgarishlar. Klimakterik yoshdagi ayollar parvarishi.

2.7. Modul. Ayol jinsiy aʼzolari rak oldi va fon holatlari. Ayollar jinsiy aʼzolari xavfsiz va xavfli oʻsma kasalliklari, erta diagnostikasi.

Oʻzbekiston Respublikasidagi onkoginekologik tibbiy yordamni tashkillashtirishga oid qonuniy va direktiv hujjatlar. Ayollar jinsiy aʼzolarining rak oldi holatlari. Xavfli va xavfsiz oʻsma kasalliklarini oldini olish va erta aniqlashda profilaktik koʻriklarning oʻrni. Profilaktik koʻriklarni tashkil etish, tibbiy hujjatlarni yuritish. Ayol jinsiy aʼzolarining xavfsiz va xavfli oʻsmalari tasnifi, sabablari, klinik kechishi. Koʻkrak bezi saratoni. Koʻkrak bezi saratonini erta aniqlashda ayolni oʻz-oʻzini nazoratini ahamiyati. Oʻsma kasalliklarni erta aniqlash va tashxis qoʻyishda zamonaviy tekshirish usullari, hamshiralik parvarishi. Onkoginekologik kasalliklarda ayollarda ijtimoiy-ruhiy oʻzgarishlar. Onkologiya dispanserida bachadon boʻyni fon va rak oldi kasalliklarini kuzatish. Bachadon boʻyni va tanasini oʻsmalarining oldini olish tadbirlarida katnashish. Bemorlarni turli diagnostik (laborator va instrumental) tekshiruvlar, operatsiyaga tayyorlash. Operatsiyadan keyin parvarishni olib borish. Kasalliklarning dispanserizatsiyasi va profilaktikasida akusherka (hamshira) ning vazifalari.

2.8. Modul. Favqulodda vaziyatlar va hayot uchun xavfli holatlarda birinchi yordam koʻrsatish.

Favqulodda vaziyatlar haqida asosiy tushuncha. Favqulodda vaziyatlar, ularning sabablari, turlari. Tibbiy saralash va triaj asoslari. Shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish bosqichlari va qoidalari. Ommaviy talofatlar holatida evakuatsiya va birinchi yordam ko'rsatish tamoyillari. Qon ketishni to'xtatish usullari. Yengil va og'ir kuyishlarda tibbiy yordam ko'rsatish. Elektr jarohatlari, ochiq va yopiq jarohatlar, sinishlar, uzoq muddat ezilishda shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish. Hushdan ketish, kollaps, shok, koma haqida umumiy ma'lumot. Hushdan ketish, kollaps holatlarida bemorga yordam ko'rsatish. Shok holatlarida yordam ko'rsatish algoritmi (gipovolemik, anafilaktik, travmatik). Komatoz holatda bemorni baholash va dastlabki yordam ko'rsatish. Terminal holat bosqichlari. Klinik va biologik o'lim belgilari. CPR – yurak-o'pka reanimatsiyasining nazariy asoslari. Kattalar va bolalarda yurak massaji va sun'iy nafas berishni o'tkazish algoritmi.

4.DASTURNI AMALGA OSHIRISHNING TASHKILIY-PEDAGOGIK TA'MINOTI

4.1. O'quv bazalari: Respublika o'rta tibbiyot va farmasevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi, Shifokorlar ko'chasi-2, 14-uy. Davolash profilaktika muassasalari qoshidagi o'quv bazalari.

Amaliyot bazasi: davolash profilaktika muassasalari qoshidagi o'quv bazalari.

4.2. Mashg'ulotlarni o'tkazish uchun zarur jihozlar ro'yxati:

Modul bo'yicha dars olib borish uchun nazariy, amaliy va seminar darslar o'tiladigan o'quv auditoriyalari.

Multimediali jamlanma: slaydlar to'plami bo'lgan rrt ko'rinishli ma'ruzalar, SD diskda ko'rgazma materiallar, ekran, videofilmlar.

Klinik amaliy ko'nikmalarni mustahkamlash trening o'kuv xonasi, mulyaj, fantom, nazorat savollarining elektron. Mavzular bo'yicha turli jadvallar, tasviriy ko'rgazma va qo'llanmalar.

4.3.ADABIYOTLAR RUYXATI:

4.3.1. Qonunchilik va me'yoriy-xuquqiy hujjatlar:

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 maydagi "Tibbiyot va farmasevtika ta'limi va ilm-fani tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ- 4310-son qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 7 apreldagi "Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va yanada uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 4666-sonli qarori.

3.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 18.12.2018 yil PQ 4063-sonli "Yuqumli bo'lmagan kasalliklarning profilaktikasini, sog'lom turmush tarzini qo'llab -quvvatlash va aholining jismoniy faolligi darajasini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarori

4.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 11 noyabr PF 4887-sonli "Aholining sog'lom ovqatlanishi va jismoniy faolligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi" farmoni

- 5.O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli “Tibbiy-sanitariya va farmasevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish buyicha me‘yoriy hujjatlarni yanada takomillashtirish to‘g‘risidagi” buyrug‘i.
- 6.O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining me‘yoriy hujjatlari.

4.3.2 Tavsiya etilgan adabiyotlar:

- 1.A.Gadayev I.Mirsharapov “Odam anatomiyasi “ Toshkent. 2021.y
- 2.«Reproduktiv sog‘liqni saqlash omillari» Tashkent. 2020.y
- 3..*Ziyayeva M.F., Mavlyanova G.X.*“Ginekologiya”. Toshkent, “O‘qituvchi” nashriyot matbaa ijodiy uyi. 2007.
- 4.*Allayorov YA.N.* “Reproduktiv salomatlik va kontraseptiv texnologiya” “Istiqlol” nashriyoti, 2015.
- 5.“Hamshiralik ishi protokollari”Patronaj / oilaviy hamshiralar uchun uslubiy qo‘llanma.Toshkent 2010y. 1-2 qism
- 6.”Reproduktiv salomatlik va bexatar onalik”Salomatlik -3”loyixasi o‘quv qo‘llanma.Toshkent 2022y.
- 7.”Ko‘krak suti bilan boqish” JSST dasturi bo‘yicha pedagoglar va tibbiyot xodimlari uchun qo‘llanma. YuNISEF -2023y
- 8.“Onalar hamda bolalarda xavf omillarini aniqlash bo‘yicha yo‘riqnomalar va beriladigan tavsiyalar”.Uslubiy ko‘rsatma. YuNISEF -2020y.
- 9.Sh.Zokirxojayev . M.Turimbetova “Diyetologiya” Toshkent. 2023.y
- 10.Yu.Allayorov Yu.Tojiboev “Favqulotda vaziyatlarda tez tibbiy yordam asoslari.”2017 y.Toshkent.

Qo‘shimcha adabiyotlar:

- 1.”Reproduktiv salomatlik va bexatar onalik”o‘quv seminar ishtirokchilar uchun qo‘llanma. 2009y.
- 2.“Yangi tug‘ilgan chaqaloqlar muammolarini hal qilish”USAID shifokorlar tibbiyot hamshiralari va akusherlar uchun qo‘llanma. 2005y.
- 3.Akusherstvo. Rukovodstvo VOZ. UNFPA. 2007g.
- 4.Svod prakticheskix rekomendatsiy po primeneniyu sredstv kontratsespii. Izdanie vtoroe.UNFPA2004.
- 5.FozilbekovaM.A.,Zaynitdinova X.S.“.Akusherlik va ginekologiyada hamshiralik ishi””O‘qituvchi” Toshkent. 2004 y.
- 7.Razdatochnyy material 5-go semenara Proekta usovershestvovaniya Medsestrinskogo obrazovaniya v Respublike O‘zbekistan. «Sestrinskiy uxod v materinstve». S 20 po 22 avgusta 2007 g. Tashkent – 2007
- 8.Akusherlik. Darslik. E.K. Aylamazyan. Spes.lit. 2003.
- 9.Akusherlik. Bodyajina V.I. Semenchenko. M. 2004.
- 10.Kratkoe rukovodstvo po profilaktike infektsii. Pervoe izdanie. Tashkent. 2004.

4.3.3. Elektron ta’lim resurslari

www.edu.uz
www.minzdrav.uz
<http://www.medpoisk.ru/>
<http://www.rusmedserv.com/>
www.medi.ru
www.medlinks.ru
www.medscape.com
www.medland.ru
www.med-lib.ru
www.ksmed.ru/pat/gynecology
www.medsan.ru

5.YaKUNIY ATTESTATSIYA

5.1.Yakuniy attestatsiyaga qo'yiladigan talablar,o'tkazish shakli va baholash mezonlari.

Yakuniy attestatsiya O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash Vazirligining 2020yil 15 iyundagi 160-sonli buyrug'i 3-ilovasidagi «Tibbiy-sanitariya va farmasevtika kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish ta'lim muassasalarida tinglovchilarning kasbiy bilim va ko'nikmalarini baholash to'g'risidagi Nizom» ga asosan o'tkaziladi.